

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

BOLALARNING MUSTAQIL VA ERKIN SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA OILA , MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARB MASALALARI

Baratova Maftuna Muhiddin qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani MMTB ga qarashli 46- maktab psixologi

Annotatsiya. Bolaning mustaqil va erkin inson sifatida rivojlanishi uchun birinchi navbatda oila mustahkamligini ta'minlash lozim. Oila jamiyat tayanchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Oiladagi ta'lim - tarbiyani to'ldiruvchi bu maktab va mahalla hisoblanadi.

Kalit so'zlar: hamkorlik, jamiyat, mustahkam, barkamol, tashabbus, konsepsiya, temperament, haqqoniylik.

KIRISH

Yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta'lim - tarbiya o'chog'i bu oila va maktabdir. Oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala hisoblanib , bu ota- onadan odob , bilim , tarbiyani talab qiladi. Tarbiya ishi ta'lim muassasalari bilan oila hamda mahalla hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab , mas'uliyatli vazifadir. Bolaning mustaqil va erkin inson sifatida rivojlanishi uchun birinchi navbatda oila mustahkamligini ta'minlash lozim. Oila jamiyat tayanchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Oiladagi ta'lim - tarbiyani to'ldiruvchi bu maktab va mahalla hisoblanadi. Ta'lim muassasalari , oila va mahalla o'zaro hamkorlikda ishlashi bola tarbiyasi, ayniqsa uning barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur .O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan "Mustahkam oila yili" davlat dasturini amalga oshirish jarayonida oila, mahalla, ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, har tomonlama sog'lom, yetuk va barkamol yoshlarni voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.Boshqacha aytganda, biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bilayotgan voqeа-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq, manfaatlari

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq, ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir», — deb ta'kidladi.Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi. Birgina o'tayotgan yillarning atalishida ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin. 1997 yil — Inson manfaatlari yili: albatta jamiyatdagi fuqarolar manfaati himoya qilinmagan, ularning ehtiyojlari qondirilmagan davlat hech qachon qudratli bo'lolmaydi. SHu bois ham avvalo inson qadr-qimmati oliy darajaga ko'tarildi. 1998 yil — Oila yili: xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni «Vatan ichra vatandir» deya ulug'lab kelgan. Unda ulg'aygan har bir farzand avvalo o'z oilasi aksini, ular birlashib esa mamlakat qiyofasini butun dunyoga tanitadi.

O'zbekistonda ro'y berayotgan bunday o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-onal, mahalla,o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.Ayniqsa, sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqtqi-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarini belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqqosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi.

Yuqorida keltirilib o'tilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, shaxsnı tarbiyalashda oila, məktəb və mahallanıng hamkorlik usullarining xilma-xilligini ko'rsatadi va bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi. Bu kabi holatlar yuzaga kelishining asosiy sababi yurtimizga ommaviy tarzda kirib kelayotgan, mentalitetimizga yot seriallar, videoklipler, internet, qo'l telefonlaridagi videoyozuvlari, umuman, globallashuv davrining turli "mahsulot"laridir. Ayni kunda mamlakatimizda "ommaviy madaniyat", u keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan illatlarga qarshi zarur ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Andijonda mahallalar, ta'lim muassasalarida viloyat, tuman, shahar xotin-qizlar qo'mitalari tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda milliy qadriyatlarimizga, ma'naviyatimizga, tarbiya mezonlarimizga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi keng ko'lamlı targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning sog'lig'i va davomiyligini ta'minlaydigan, milliy qadriyat va urf-odatlarimizni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga qoldiradigan, shu bilan birga, keljak avlod qanday inson bo'lib kamol topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Xo'sh, bugun oilani mustahkamlash, ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida olib borayotgan ishlarimiz qay darajada samara bermoqda? Kelin-kuyovlar oilaviy hayot haqida yetarli tushunchaga ega bo'lib turmush qurdimi? Ular ro'zg'or aravasini tortib keta olyaptimi? Umuman, mustahkam oilalarni shakllantira olyapmizmi? Ochig'i, bugun bu kabi savollarning barchasiga ijobiy javob berishga biroz o'ylanib qolamiz. Yana bir narsani unutmasligimiz kerak tarbiyada har bir bolaning xulqiga, temperamentiga qarab munosabat, muomala qilishimiz lozim. Albatta, bunda bolaning yoshi, jinsi, aqli, farosati, xullas, hammasini hisobga olish darkor. U hali bola degan fikrni unutib, bola boshidan degan fikr bilan tarbiyalanib borishi kerak.

Tarbiya jarayonida mayda detal degan narsa bo'lmashigi kerak, chunki u o'z o'rnidagi g'oyat muhim bo'lishi mumkin." Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman deb

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘ylamang. Siz bolani turmushingizning har bir lahzasida , hattoki o'zingiz uyda yo‘qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingizni , boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingizni , xursand bo'lisingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz gazeta o‘qishingiz bularning hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega " degan edi tarbiyashunos olim. Haqiqatdan ham inson farzandida shunday bir narsa borki , u oilada olgan tarbiyasini bir umr unutmaydi va doim o'sha ishga taqlid qilib yashaydi . Dono xalqimizda bir maqol bor" Qush uyasida ko‘rganini qiladi".Shunday ekan farzandlarimizga yoshligidan katta e'tibor berishimiz lozim.Agar oilada muhit yaxshi bo'lmasa ya'ni ota -ona farzandlariga befarq bo‘lib va har doim janjallar sodir bo‘lavera bu bolaning tarbiyasiga, rivojlanishiga qattiq ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir.Afsuski, oramizda shunday ota-onalar ham uchraydiki, bolaning hamma talab - ehtiyojlariga haddan tashqari e'tiborli bo‘lib, barcha o‘jarliklarini ko‘taradilar. Natijada bola kelajakda yomon xulqli , jamiyatga zarari tegadigan inson bo‘lib qoladi. Ana shunday muammolar kelib chiqmaslikning oldini olish uchun biz bo'lajak yosh avlodga to‘g‘ri tarbiya berib, ularga adolatlilik, to‘g‘ri so‘zlilik, haqqoniylik va hurmat-izzatni o'rgatishimiz lozim.

XULOSA

Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor berilmasa , kelajak boy beriladi." degan edi I. Karimov. Haqiqatdan ham tarbiya bo'lmasa ta‘lim bo'lmaydi.Ta‘lim bo'lmasa agar kelajagimiz boy beriladi. Shuni aytishim mumkinki, kelajak yoshlарimiz har tomonlama yetuk, barkamol bo'lishi uchun tarbiyaga e'tibor qaratishimiz lozim. Tarbiya jarayonini raqamlar orqali ifodalasak, tarbiyani 1 chi o'ringa qo'yib uni 1 raqami qilib tanlab olaylik, endi uni ortiga qancha ko'p nol qo'ysak u son shunchalik kattalashadi ya'ni insonning yaxshi hislatlari ortib boradi, lekin birgina bir raqamini olib tashlash bu sonning qiymatini butunlay o'zgartirib 0 qilib ma'no anglatmay qo'yadi. Bundan ko'rinish turibdiki tarbiyasiz inson hech kimga aylanib qolgандик go'yo. Demak , insonni inson qilib turadigan , uning libosi bu tarbiyadir.Prezidentimiz amalga oshirilayotgan hech

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kimdan kam bo'limgan, yuksak ma'naviyatli avlodni voyaga yetkazish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligining ahamiyati kattadir. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unlikda olib borilishi mustaqil fikrli, barkamol yoshlarni ulg'aytirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O'qituvchi nashriyoti". 2002yil
2. Ona tili o'qitish metodikasi / K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. –T: "NOSHIR", – 2009
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 4-9.
4. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarng vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 176180.